GAZİ ÜNİVERSİTESİ
TÜRK DÜNYASI UYGULAMA
ve ARAŞTIRMA MERKEZİ

# ULUSLARARARASI SEMPOZYUM



# TÜRK DÜNYASINDA ALP KADIN

International Symposium / Alp Woman in the Turkish World

## E-BİLDİRİ KİTABI

8-10 Mart 2022/ March 8-10, 2022

https://turkdam.gazi.edu.tr

# "TÜRK DÜNYASINDA ALP KADIN" ULUSLARARASI SEMPOZYUM

*International Symposium / Alp Woman in the Turkish World*

**ISBN :** 978-975-507-302-6

*Bu e-kitapçık Mayıs 2022'de yayımlanmıştır.*

**Sempozyum Bildiri Kitabı**

**Kapak ve Sayfa Tasarımı:** Adem ÖCAL

**Mizanpaj:** Büşra ARSLAN

## SEMPOZYUM ONUR KURULU

**Prof.Dr. Musa YILDIZ**
Gazi Üniversitesi Rektörü/Türkiye

**Prof.Dr. Ceyran MAHMUDOVA**
Azerbaycan Devlet Medeniyet ve İncesanat Üniversitesi Rektörü/Azerbaycan

**Prof.Dr. Cafer CAFEROV**
Azerbaycan Devlet Pedagoji Üniversitesi Rektörü /Azerbaycan

**Dr. Zhanar TEMİRBEKOVA**
Ahmet Yesevi Üniversitesi Rektörü /Kazakistan

**Prof.Dr. Cengiz TOMAR**
Ahmet Yesevi Üniversitesi Rektör Vekili /Kazakistan

**Prof.Dr. Alparslan CEYLAN**
Kırgısiztan-Türkiye Manas Üniversitesi Rektörü/ Kırgızistan

**Prof.Dr. Ümit HASSAN**
Yakın Doğu Üniversitesi Rektörü/KKTC

## SEMPOZYUM DÜZENLEME KURULU

**Prof.Dr. Alev ÇAKMAKOĞLU KURU**
Gazi Üniversitesi / Türkiye

**Prof.Dr. Nakış KARAMAĞARALI**
Gazi Üniversitesi / Türkiye

**Prof.Dr. Türker EROĞLU**
Gazi Üniversitesi / Türkiye

**Prof.Dr. Ayşe Yücel ÇETİN**
Gazi Üniversitesi / Türkiye

**Prof. Dr. Bülent AKSOY**
Gazi Üniversitesi / Türkiye

**Prof.Dr. Barış KARAELMA**
Gazi Üniversitesi / Türkiye

**Prof.Dr. Hüseyin ELMAS**
Gazi Üniversitesi / Türkiye

**Prof.Dr. Çağatay AKENGİN**
Kırgızistan-Türkiye Manas Üniversitesi / Kırgızistan

## SEMPOZYUM BİLİM KURULU

**Prof.Dr. Abbas KETİZMEN**
*Gazi Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Abdullah KARAÇAĞ**
*Akdeniz Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Alaybey KAROĞLU**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Ali Efdal ÖZKUL**
*Yakın Doğu Üniversitesi/KKTC*

**Prof.Dr. Ali BAŞ**
*Selçuk Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Ali Osman UYSAL**
*Çanakkale 18 Mart Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Arif AZİZOV**
*Azerbaycan Devlet Medeniyyet ve İncesanat Üniversitesi/Azerbaycan*

**Prof.Dr. Birsen ÇEKEN**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Bülent SALDERAY**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Canan DELİDUMAN**
*Konya Karatay Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Cemile ABDİU**
*İran Üniversitesi/ Arnavutluk*

**Prof.Dr. Eldar ASLANOV**
*Azerbaycan Devlet Pedagoji Üniversitesi/ Azerbaycan*

**Prof.Dr. Elfina SEBGETULLAH**
*Moskova Devlet Üniversitesi/Rusya*

**Prof.Dr. Esma ŞİMŞEK**
*Fırat Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Fatih BAŞBUĞ**
*Akdeniz Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Fatih KİRİŞÇİOĞLU**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Fikret RIZAYEV**
*Azerbaycan Devlet Pedagoji Üniversitesi/ Azerbaycan*

**Prof.Dr. Fulya BAYRAKTAR**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Galibe HACIYEVA**
*Nahcivan Devlet Üniversitesi /Azerbaycan*

**Prof.Dr. Gıyasettin AYTAŞ**
*Gazi Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Gülşen ALİYEVA**
*Azerbaycan Devlet Medeniyyet ve İncesanat Üniversitesi/Azerbaycan*

**Prof.Dr. Gülnaz ABDULLAHZADE**
*Azerbaycan Bakı Müzik Akademisi/Azerbaycan*

**Prof.Dr. Gültekin AKENGİN**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. F. Gülay MİRZAOĞLU**
*Hacettepe Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Hale Fatma ŞIVGIN**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. Halit ÇAL**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. Hülya Eraydın ARGUNŞAH**
*Erciyes Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. İsa ELİRİ**
*Kırıkkale Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. İsmet ÇETİN**
Gazi Üniversitesi /Türkiye

**Prof.Dr. Kenan BİLİCİ**
Ankara Üniversitesi / Türkiye

**Prof.Dr. Kudret ALTUN**
Erciyes Üniversitesi/Türkiye

**Prof.Dr. Levent MERCİN**
Kütahya Dumlupınar Üniversitesi/Türkiye

**Prof.Dr. Mehmet ŞAHİNGÖZ**
Gazi Üniversitesi/ Türkiye

**Prof.Dr. Meltem KATIRANCI**
Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi /Türkiye

**Prof.Dr. Mehmet ÖZKARTAL**
Süleyman Demirel Üniversitesi/Türkiye

**Prof.Dr. Mutluhan TAŞ**
Selçuk Üniversitesi/Türkiye

**Prof.Dr. Mustafa ARGUNŞAH**
*Erciyes Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Mustafa DENKTAŞ**
*Akdeniz Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Mustafa SEVER**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Naciye YILDIZ**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. Necati DEMİR**
*Gazi Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. Nejla GÜNAY**
*Gazi Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. Nezir TEMUR**
*Gazi Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. Öcal OĞUZ**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Özkul ÇOBANOĞLU**
*Hacettepe Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Refik TURAN**
*Gazi Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. Remzi DURAN**
*Selçuk Üniversitesi/ Türkiye*

**Prof.Dr. Ruhi ERSOY**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi /Türkiye*

**Prof.Dr. Serap BUYURGAN**
*Başkent Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Sevil KERİMOVA**
*Azerbaycan Devlet Medeniyyet ve İncesanat Üniversitesi/Azerbaycan*

**Prof.Serkan İLDEN**
*Kastamonu Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Sevilay ÇINAR**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Şebnem ORHAN**
*Gazi Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr. Uğur ATAN**
*Selçuk Üniversitesi/Türkiye*

**Prof.Dr.Yaşar ÇORUHLU**
*Mimar Sinan Güzel sanatlar Üniversitesi/ Türkiye*

**Prof.Dr. Yıldıray ÖZBEK**
*Akdeniz Üniversitesi / Türkiye*

**Prof.Dr. Zuhal YÜKSEL**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi /Türkiye*

**Doç.Dr. Afet ASLANOVA**
*Azerbaycan Devlet Medeniyet ve İncesanat Üniversitesi/Azerbaycan*

**Doç.Dr.Atilla DÖL**
*Niğde Ömer Halisdemir Üniversitesi/ Türkiye*

**Doç.Dr. Anarbek İBRAEV**
*Kırgızistan-Türkiye Manas Üniversitesi / Kırgızistan*

**Doç.Dr.Aydın ZOR**
*Akdeniz Üniversitesi/Türkiye*

**Doç.Dr. Aygül HACIYEVA**
*Azerbaycan Bilimler Akademisi/Azerbaycan*

**Doç.İbrahim ÇOBAN**
*Selçuk Üniversitesi/Türkiye*

**Doç.Dr. Durdane RAHİMZADE**
*Moskova Tıp Üniversitesi/Rusya*

**Doç.Dr. Nuran MALTA MUHAXHERİ**
*Priştine Üniversitesi /Kosova*

**Doç.Dr. Gonca YAYAN**
*Gazi Üniversitesi/Türkiye*

**Doç.Dr. Ömer TÜRKMENOĞLU**
*Gazi Üniversitesi /Türkiye*

**Doç.Dr. Pınar FEDAKÂR**
*Ege Üniversitesi/Türkiye*

**Dr. Öğr. Üy. Ahmet AYTAÇ**
*Aydın Adnan Menderes Üniversitesi/Türkiye*

**Dr. Öğr. Üy. Demet ÖRNEK**
*Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi /Türkiye*

**Dr. Öğr. Üy. Mehmet SAĞ**
*Akdeniz Üniversitesi/Türkiye*

**Dr. Öğr. Üy. Nuran SAY**
*Gazi Üniversitesi/Türkiye*

**Dr. Öğr. Üy. Sema BİLİCİ**
*Gazi Üniversitesi/Türkiye*

**Dr. Öğr. Üyesi Shurubu KAYHAN**
*Mimar Sinan Güzel sanatlar Üniversitesi/Türkiye*

**Dr. Öğr. Üy. Teoman ÇIĞŞAR**
*Kastamonu Üniversitesi/Türkiye*

**Dr. Shahyar DANESHGAR**
*Indiana University/ABD*

# İÇİNDEKİLER

**SUNUŞ** ....................11
"Prof.Dr. Musa YILDIZ"

**AÇIŞ KONUŞMASI** ....................13
"Prof. Dr. Alev ÇAKMAKOĞLU KURU"

**Prof. Dr. Meltem DEMİRCİ KATIRANCI**....................17
Davetli Konuşmacı / *"TÜRKMENELİNDE CESARET ÖRNEKLERİ VE YİĞİTLİĞİN SESSİZ TANIKLARI; TÜRKMEN KADINLARI"*

**Prof. Dr. Ulvi KESER**....................26
Davetli Konuşmacı / *"DARAĞACINDAN ÖZGÜRLÜĞE KAHRAMAN BİR KADIN: GÜLTEN TİLKİ"*

**Prof. Dr. Ruhi ERSOY**....................41
Davetli Konuşmacı / *"AHMED CAVAD'IN KAHRAMAN HAYAT YOLDAŞI: ŞÜKRİYE HANIM"*

**Prof. Dr. Özkul ÇOBANOĞLU**....................48
Davetli Konuşmacı **/** *"ALPEREN KADINLARIMIZ"*

**ZÜBEYDE HANIM OTURUMU....................52**

**Behlül İBRAHİMLİ, Elvin ALİYEV** ....................53

*"SON BRONZ DÖNEM KADIN SAVAŞÇILARIN MEZARLARI"*

**Dr. Öğr. Üyesi Ayşe Nur MORKOÇ**....................62

*"ESKİÇAĞ TÜRK DEVLETLERİNDE DİPLOMASİ VE KADIN"*

**Dr. Öğr. Üyesi Meryem DOYGUN**....................69

*"HÂREZMŞAHLAR DEVLETİ'NİN MUKTEDİR KADINI: TERKEN HATUN"*

**Asil CEYLAN**....................78

*"SELÇUKLU HANEDANINA YARAŞIR BİR KADIN "ALTUNCAN HATUN"*

**NENE HATUN OTURUMU....................83**

**Prof. Dr. Güllü YOLOĞLU**....................84

*"TÜRK TARİHİNİ YAZAN ALP KADINLAR"*

**Dr. Demet KARA**....................89
"KUTLUĞ TERKEN HATUN"

**Neslihan KOMAN PARLAK**....................95

*"İSLAMİYET'İN KABULÜYLE TÜRK DÜNYASI ALP KADINLARININ BACİYANI RÛM'A DÖNÜŞME AŞAMALARININ İNCELENMESİ ÜZERİNE BİR ÇALIŞMA"*

**Öğr. Gör. Meral ŞAHİN**......99

*"HAYIRSEVER BİR SULTAN EŞİ; SULTAN İKİNCİ MAHMUD'UN İKİNCİ KADINI HOŞYAR KADINEFENDİ VE YOZGAT'TAKİ BAZI HAYIR FAALİYETLERİ"*

**EMİNE IŞINSU OTURUMU......110**

**Dr. Yaşar KALAFAT**......111

*"KİŞİOĞLU'NUN ER KİŞİ KADIN KİŞİ YAPILANMASINDA ALPLİĞİN MİSTİK BOYUTU ARANABİLİR Mİ?"*

**Prof. Dr. İsmet ÇETİN**......121

*"KATUN'DAN BACI'YA GÖKTÜRK BENGÜTAŞLARI'NDAN CENKNAMELERE KADIN TİPİ"*

**Prof. Dr. Mustafa SEVER**......129

*"TÜRK KÜLTÜRÜNDE "ALP KADIN" TİPİ"*

**Prof. Dr. Galibe HACIYEVA**......134

*"AZERBAYCAN-TÜRK FOLKLORUNDA ALP KADIN OBRAZI"*

**Prof. Dr. Marguba ABDULLAYEVA**......142

*"ALANQUVO AFSONASIY QAHRAMON AYOL"*

**ŞERİFE BACI OTURUMU......148**

**Prof. Dr. Ayşe YÜCEL ÇETİN**......149

*"BİR KADIN DESTAN KAHRAMANI: GÜLAYIM"*

**Doç. Dr. Mehpara ALIYEVA**......157

*"CALIL MAMMADGULUZADE YARATICILIĞINDA AZERBAYCAN KADINININ KAMU HAYATINDAKİ ROLÜ"*

**Mehriban ELEKBERZADE**......159

**HALİDE EDİP ADIVAR OTURUMU......166**

**Dr. İlknur BAYRAK İŞCANOĞLU**......167

*"TARİHTE YAŞAMIŞ GERÇEK BİR ALP KADIN TİPİ "KURMANCAN DATKA""*

**Alper BAKICI**......171

*"DUHA KOCA OĞLU DELİ DUMRUL BOYUNDA YER ALAN YAD KIZI'NIN ALT TİPTEN MERKEZİ KAHRAMANA DÖNÜŞÜM SÜRECİ"*

**Arş. Gör. Arzu ACAR**......183
*"ÖZBEK SAHASI KÖROĞLU ANLATMALARINDA ALP KADIN TİPİ"*

Prof. Dr. Marguba ABDULLAYEVA

Ali Şir Nevai Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi, Taşkent, Özbekistan / margubaabdullayeva507@gmail.com / +998933795146

## ALANQUVO AFSONASIY QAHRAMON AYOL

**Kalit so'zlar:** Alanquvo, tarixiy shaxs, tarixiy manba, nirunlar (nurdan paydo bo'lgan), afsona, hikoyat, qiyosiy tahlil.

## ANNOTATSİYA

Mazkur maqolada tarixiy shaxs Alanquvo haqidagi hikoyatlar qiyosiy manbalar orqali o'rganilgan. Alanquvo afsonasi nafaqat tarixiy mavzudagi asarlarda, tarixiy shaxslarning kelib chiqishini belgilashda, balki sof badiiy asarlarda ham bosh qahramonning ilohiy qudrat bilan yaratilganligiga ishora sifatida muhim badiiy obrazga aylangani ilmiy jihatdan asoslab berilgan.
Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asaridagi "Alanquvoning ajoyib-g'aroyib hikoyati" Rashididdinning "Jome' ut-tavorix", "O'g'uznoma", muallifi noma'lum "Tavorixi guzida" – "Nusratnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Hofiz Buxoriyning "Abdullanoma", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarlarida keltirilgan "Alanquvo" hikoyatlari bilan qiyosiy tahlil qilingan.
Alanquvo obrazi Bibi Maryamga o'xshatilgani haqidagi qarashlar tahlillar asosida yoritib beriladi. Xalq og'zaki ijodida ilohiylashtirib, unga afsonaviy nisbat berilgani, aslida turkiy xalqlar shajaralari bitilgan adabiy-tarixiy asarlarda u haqda an'anaviy tarzda ma'lumotlar berib borilgani aniq faktlar bilan asoslanadi.

## ALANQUVO EFSANEVİ KAHRAMAN KADIN

**Anahtar Sözcükler:** Alanquvo, tarihi şahsiyet, tarihi kaynak, nirunlar (ışıktan doğan), mit, hikaye, karşılaştırmalı analiz.

Makalede tarihi şahsiyet Alanquvo ile ilgili hikayeler karşılaştırmalı kaynaklar üzerinden incelenmiştir. Alanquvo efsanesinin sadece tarihi temalar üzerine yapılan çalışmalarda, tarihi figürlerin kökenini belirlemede değil, aynı zamanda kahramanın ilahi güç tarafından yaratıldığının bir işareti olarak saf sanat eserlerinde de önemli bir sanatsal imaj haline geldiği bilimsel olarak kanıtlanmıştır.
Abulgazi Bahodirkhan'ın "Shajarayi turk", "Alanquo'nun harika hikayesi", Rashididdin'in "Jome' ut-tavorix", "Oguznoma", yazarı bilinmeyen "Tavorihi guzida" - "Nusratnoma", Sharafiddin Ali Yazdi'nin "Zafarnoma", "Hafiz Mirzofiz", Uluğbek'in "Dört Milletin Tarihi" ve Muhammed Haydar Mirza'nın "Raşid Tarihi", "Alanquvo"nun hikayeleriyle karşılaştırılır.
Alanquvo'nun görüntüsünün Meryem Ana'ya benzediği yönündeki görüşler analiz temelinde aydınlatılmaktadır. Halkın sözlü eserlerinde tanrılaştırılıp efsanevi bir nitelik kazandırılması esasına dayanır, aslında Türk halklarının soylarının yazılı olduğu edebî ve tarihî eserlerde geleneksel olarak onlar hakkında bilgi verilir.

"Alanquvo" afsonasi o'zining an'anaviyligi, tarixiy voqealarni o'zida aks ettirishi hamda badiiylik ko'lami bilan tarixiy asarlarda muhim o'ringa ega. Tarixiy asarlarda, jumladan, Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asaridagi "Alanquvoning ajoyib-g'aroyib hikoyati" mana shu mavzuni tadqiq etishimizga turtki bo'ldi.
"Shajarayi turk"da Alanquvo haqida ikkita kichik hikoyat mavjud. Birinchisi "Alanquvoning ajoyib-g'aroyib hikoyati", ikkinchisi "Alanquvo o'g'lonlarining zikri" deb nomlanadi. Birinchi hikoyatda Abulg'ozi Yulduzxonning ikki o'g'lidan qolgan Dubunbayon va Alanquvo ismli nabiralarini unashtirib katta to'y qilib bergani aytiladi. O'z o'rniga nabirasi Dubunbayonni taxtga o'tqazadi. Biroq Dubunbayon 30 yoshga yetmay vafot etadi. Undan ikki o'g'il qoladi. Birining oti Bilgiday (7 yosh), ikkinchisining oti Bekchiday (Bilganut – ba'zi kitoblarda shunday yozilgan – A.M.) (6 yosh). Shundan so'ng Alanquvo haqida hikoya qilib, Du-

bunbayon o'lgandan keyin Yulduzxonning aka va inilari, o'g'illari, podshohlar va navkarlar uni tilaganini aytadi. Biroq Alanquvo bunga rozilik bermaydi. "Men jonim tirida erga borman. O'g'lonlarim yigit bo'lg'uncha o'zim elga bosh bo'lib turarman. Andin so'ng o'g'lonlarimga topshururman" – [1; 44] dedi.

Alanquvo taxtni o'zi boshqaradi. Bir necha yillar o'tgandan keyin bir voqea sodir bo'ladi. Bir kecha Alanquvo yotib, sahar uyg'onsa, tuynukdan bir yorug' nur kelib kiradi. Bu nur ichida bir odamning qiyofasi ko'rinadi. Oq-sariq, ko'zlari shahlo edi. Shunda Alanquvo zaifalarini (xizmatidagi ayollar nazarda tutilgan – M.A.) uyg'otmoqchi bo'lib qichqiradi. Lekin ovozi chiqmaydi, tili tutiladi. O'rnidan turmoqchi bo'lsa, qo'l va oyoqlari jonsizdek edi. Ammo aqlu hushi joyida. Yorug'lik ichidagi kishi ohista kelib u bilan juft bo'ladi. Yana tuynukdan chiqib ketadi. Alanquvo bu voqeani aytsam, hech kim ishonmaydi deb, biron-bir kishiga og'iz ochmadi. Besh-olti kun o'tgandan keyin u yana keladi. Bu holat yana davom etadi. Alanquvo homilador bo'ladi. Homila 4-5 oylik bo'lgandan keyin qarindoshlari undan qanday homilador bo'lganligini so'raydi. Alanquvo barchasini aytib beradi. "Menga er kerak bo'lsa, bormasmu erdim. Taqi ul kim zaifa ham bo'lsam, ko'p xalq meni podshoh qilib tururlar. O'zumni, muncha elni va xalqni va ikki o'g'limni sharmanda qilib, munday noma'qul ishni hargiz qilurmanmu? [1; 44]. Agar menga ishonmasangiz uyimning oldida kechqurun yoting. Xudo meni sharmanda qilishni xohlamasa, sizlarga ham uni ko'rsatadi. Qornimdagi bola tug'ilsa, ko'rarsiz, u biron-bir tanish kishiga o'xshamaydi. Bunda Alloh taoloning bir hikmati borga o'xshaydi. Bundan so'ng barchalari Alanquvoning so'zlariga ishondilar. Shunday bo'lsa-da, ko'pchilik uning uyi atrofida yotdilar. Navbat bilan uyg'oq turdilar. Bir necha kundan so'ng sahar vaqtida yuqoridan uyning ichiga tushganday nur paydo bo'ladi. Buni ko'rgan kishi yonidagilarni uyg'otdi. Yorug'lik tuynukdan Alanquvoning uyiga kirdi. Bir qancha vaqtdan keyin qaytib chiqib ketdi. Yotgan xalqning ozrog'i kelganini ko'rdi. Ketganini esa hamma ko'rdi. Lekin yorug'lik ichidagi suratni ko'ra olmadilar. Shundan keyin Alanquvoning so'zlariga hamma ishondi va chinligini bildi. Alanquvo haqidagi birinchi hikoya ana shunday tugaydi.

Ikkinchi hikoyada esa Alanquvoning o'g'illari haqida ma'lumot beriladi. Alanquvoning uch o'g'li bor edi. "Avvalg'ining oti Bukun Qatag'an. Barcha qatag'an eli aning nasli tururlar. Ikkinchisining oti Busqun Chalchi. Chalchut eli aning nasli turur. Uchlanchisining oti Budanjir Munqaq. Ani xon ko'tardilar. Chingizxon va mo'g'ulning ko'p uruqlari aning nasli turur. Bu uch o'g'londin bo'lg'an ellarga barchasina Nirun derlar... Nechuk kim mo'g'ulning zo'mina (homila) nurdin bo'ldi dey tururlar" [1; 45]. Asardagi ma'lumotlar tarixiy-badiiy nasr namunalarida ko'p uchraydigan "Alanquvo" obrazini chuqurroq o'rganishni talab etadi. Ma'lumki, Abulg'ozi "Shajarayi turk"ni yozishda ko'plab tarixiy kitoblardan (18ta tarixiy manbalardan – A.M.) foydalangan. Abulg'ozi keltirgan Alanquvo hikoyati yana qaysi asarlarda uchraydi?

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, bu mavzudagi hikoyalar Rashididdinning "Jome' ut-tavorix" [ Qarang: 14; 540], Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" [12; 352], muallifi noma'lum "Tavorixi guzida" – "Nusratnoma" [15; 102, 114.], Hofiz Buxoriyning "Abdullanoma" [19; 413], asarlarida uchraydi. Rashididdinning yozishicha [ Qarang: 14; 540 ], Alanquvo oqila ayol bo'lib, Quralas qabilasidan bo'lgan. Barcha mo'g'ul qabilalari Dubunbayon va uning xotini Alanquvodan tarqagan. Ba'zi manbalarga ko'ra, Alanquvo Xurilartoy merganning qizi bo'lgan. Abulg'ozi ma'lumotiga asoslansak, mo'g'ul xoni Yulduzxonning nabirasi bo'lgan.

"Tavorixi guzida" – "Nusratnoma" asarida ham Alanquvo haqida qissa mavjud. Bu qissada Alanquvo quralasdan chiqqan beva ayol ekanligi, afsonaga ko'ra u yorug' nur tufayli farzand ko'rganligi, uch o'g'li borligi va ularning avlodi Nurunlar deb atalishi haqida ma'lumotlar berilgan. [ Qarang: 3; 102, 114].

Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida ham "Alanquvoning ajoyib-g'aroyib hikoyati" bor. An'anaga ko'ra, Hofiz Buxoriy "Abdullanoma" asarini umumtarixga oid Nuh hikoyasi, Yofas va O'g'uzxon hikoyalari bilan boshlagan. Shular qatorida Alanquvoga oid hikoyani ham bayon etadi. Hofiz Buxoriy "Abdullanoma"da Alanquvo haqidagi hikoyatni badiiy-ijodiy ishlaydi va bir necha tarix kitoblari asosida turli ma'lumotlarni keltiradi. "Ikkinchi firqa – Qiyondan tarqalgan qavmlar to'g'risida bo'lib, ularni Nirunlar deb ataydilar", – deb, Alanquvo to'g'risidagi fikrlarini bayon qiladi: "Ular Alanquvoning eri Dibun Boyon vafot qilgandan keyin otasiz tug'ilgan uch o'g'lining farzandlari va naslidandirlar. Mo'g'ullarning fikricha, ular vujudining moddasi nur bo'lib, (Alanquvo) u (nur) dan homilador bo'lgan. Chunonchi, (Bibi) Maryam hazratlari (ham) ersiz hazrat Iso alayhissalomga, (unga Tangrining rahmati bo'lsin), homilador bo'lgan va u kishini Nirun, ya'ni mustahkam deb ataydilar va (Nirun) tozaliq, mustahkamlikka ishoratdir. Bu qavmlar uch qismdan iboratdir. Nirunning birinchi qismi Alanquvo naslidan bo'lib, to Kobulxonning oltinchi urug'igacha bo'lgan qismdir. Ular o'n olti qabiladirlar..." [19; 47]. Asarda "Alanquvo dostoni va uning farzandlaridan tarqalgan tarmoqlar" nomli sarlavha ostidagi Alanquvo qissasi muallif tomonidan nihoyatda qiziqarli, badiiy-estetik ifodalarda berib o'tiladi: "Alanquvo dostoni qissalarning ajoyiblari va xabarlarning g'aroyiblaridandir. Agar kishi shunday voqea va hikoyalarga diqqat bilan, teran qarasa, xuddi shunga o'xshash hikoyatlar tarixda bo'lganligi aql (haqiqat)dan yiroq emas. Alanquvoning ajib hodisasi va g'arib voqeasining paydo bo'lishidir. Mo'g'ullar da'vosiga to'g'ri, bo'lish-bo'lmasligi mas'uliyati esa rivoyat qiluvchining zimmasida. Uning pok qornida, juft bo'lmasdan uch nafar baxtli farzand vujudga kelgan. Bu voqea ajoyib va g'aroyib hikoyalardandir" [19; 48].

Hofiz Buxoriy Alanquvoni o'ziga xos tasvirlaydi. "U husn va go'zallik osmonida bir oy ediki, jahonni yorituvchi oftob uning yuzining shami ravshanligidan nur olardi; latofat va mahbublik chamanida ozod sarv uning sanubarxirom qomatiga banda bo'lardi; og'zining g'oyatda tangligidan hech qanday nozik ma'noli so'z mo'y uchiga ham nishon berolmas edi va (uning) beli shu qadar ingichka ediki, har qanday qilni qoq yoradigan daqiqshunos kishi ham uning (boisini) yecholmas edi" [19; 48]. Mumtoz tashbehlarga boy tasvir, Alanquvo portretini o'quvchi ko'z o'ngida namoyon qiladi. Muallif Alanquvoning tashqi ko'rinishini mubolag'a san'ati orqali ta'rif va tavsif qiladi. U haqda "Zafarnoma"da shunday hikoya qilinadi: "Tuynukdan uning uyiga bir yorug'lik nuri tushdi va u nur Alanquvoning og'ziga kirdi, shundan so'ng u o'zining homilador ekanligini sezdi, bu xuddi Jabroil alayhissalomning nafasidan Imronning qizi Maryamda erkak daxlsiz homila paydo bo'lganiga o'xshaydi".

Fard:
*Maryam qissasini eshitsang tildan,*
*Alanquvo holin anglaysan dildan.*

Ushbu kitobning bu hikoyalardan maqsadi shuki, Buzanjirxon onadan otasiz tug'ildi. Onasi Alanquvo Ko'rklukka kelsak, uning nomi barcha tarixiy bitiklarda qayd etilgan va u Nuh alayhissalomning o'g'li Yofas (ularning ruhlari shod bo'lsin)ga borib taqaladi. Alanquvo Ko'rklukning bobolarining har biri tarixlarda zikr etilgan, ular haqida hikoyamiz cho'zilib ketmasligi uchun bu yerda to'xtab o'tirmaymiz" [11; 12], – deb yozadi muallif.

Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarining ikkinchi bobida turk-mo'g'ul xalqlarining afsonaviy onasi Alanquvo va undan tarqalgan avlod, ya'ni podshohlar (Buzunjor qoon, Buqoxon, Dutuminxon, Qobulxon, Boysung'urxon, Borton bahodir, Yasugay bahodir) tarixi bayonini o'z ichiga olgan. Ulug'bek asarida Alanquvoning ta'rifini keltiradi:

*Labash dar suxan jon go'yo budi,*
*Ruxash dar safoi ruh paydo budi.*
*Du oshifta hinduyash anbar naqab,*

*Du xush xufta joduyash kofar nasab.*

Muarrix Alanquvoning ta'rifini nazmiy va nasriy usulda bayon etib, yoshi o'n to'rtga yetganda, o'n to'rt kunlik oy misoli husnu jamolga ega bo'lganini ta'riflaydi. Guli suriy varaqlari barglari uning pokiza yuzidan suv ichishi yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan va bir bayt keltirilgan.

Tahlilga tortilgan manbalarda Alanquvoning xirgohida kuzatib turgan odamlar yorug' nurga tig' bilan xujum qilganligi aytilmaydi. "To'rt ulus tarixi" asarida odamlar bu nurga tig' bilan xujum qilganlarida o'zlari zarar topganligi, yorug' nur esa bedana suratida qochib ketgani aytiladi. Alanquvoning homilasi muddati yetgach, uch egizak o'g'illar dunyoga kelgan. Birinchi o'g'ilga Burqun, ikkinchi o'g'ilga Busung'ur, uchinsiga Buzanjar deb nom berdilar. Deydilarki, bu uch avlodning tug'ilishi hijratdan keyingi 115-sanada edi. Alanquvodan tarqagan bu avlodni nuroniy pushtidan tug'ilgani uchun "Nayirun" deb atadilar.

O'zbek millatining kelib chiqishi haqida turli qarashlar mavjud. Shulardan biri "Alanquvo" haqidagi rivoyat bilan bog'lanadi. Alanquvo eri o'lgandan keyin uning o'rniga podshoh bo'ladi. Uning xonasiga tuynugidan nur yorug'lik shaklidagi oq yuzli, bodom qovoq, qisiq ko'zli bo'lgan bir odam kelib u bilan qovushadi va Alanquvo homilador bo'ladi. Alanquvo milodiy 718 yilda "Nur odam"dan uch o'g'il ko'radi (ba'zi kitoblarda uchinchi o'g'lini tug'adi deyilsa, ba'zilarida uch o'g'il ko'radi, deyiladi. Uchinchi o'g'li Budanjir Munqaq taxtga o'tiradi. Uning beshinchi – avlodi Tumanaxon (Tumnaxon – "Shajarayi turk"da shunday yozilgan). Tumanaxon Chingizxonning to'rtinchi bobosi, Amir Temurning esa to'qqizinchi bobosidir.

Amir Temurning qabr toshi ustida Temur geneologiyasi, Chingizxon geneologiyasidan Buzanjir (Alanquvoning o'g'li)gacha va uning yorug'lik nuridan qanday homilador bo'lgani to'g'risidagi hikoya hamda Amir Temur vafot etgan sana yozilganligi haqida ma'lumot berilgan. "Istagan odam bilsinki, so'nggi (amirning) onasini Alanquvo der edilar. Bu ayol nomusli, sof, haqgo'yligi bilan ajralib turar edi. Bir tunda uyning teshigi orqali kirib, so'ng odam shakliga kirgan yorug' shu'ladan farzandli bo'ldi. U o'zini Abu Talib o'g'li Ali deb tanishtirgan edi. U aytgan gapni chin haqiqat deb bilganlar. Alanquvoning mahtovga sazovor avlodi asrlar davomida dunyoni egallaganlar" [10].

"Xamsa"ning to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor"da Navoiy "Saltanat bahrining durri nobi va xilofat ma'danining la'li serobi, ofarinish tojig'a javhari zoti zeb ila zayn muizzus-saltanati vad-dunyo vad-din Sulton Husayn Bahodirxon hallada mulkahu va sultonahu midhati ko'sin o'rmaq va bu bahona bila zarrani quyoshqa sog'indurmoq" [5; 696], – sarlavhasi ostida Sulton Husayn Boyqaroni madh etadi. Jumladan, shunday yozadi:

*Anga Chingiz ulug' ata kelgan,*
*Anasi xud[1] Alanquvo kelgan.* [5; 696].

Navoiy Husayn Boyqaroni madh etib, uning zafarlari butun olamga hursandchilik baxsh etishini, buyuk saxovat egasi ekanligini, uning otasi ham, onasi ham xon bo'lganligini, ota tomondan Chingizxonga, ona tomondan Alanquvoga bog'lanishini, u saltanat faxri ekanligini chuqur samimiyat bilan ta'kidlaydi.

Alanquvo so'zining etimologiyasiga nazar soladigan bo'lsak, "Alan" "Ilon" ma'nosini bildiradi. Qadimda "Ilon" deganda osmondan tushadigan "nur"ga nisbat berilgan. Hazrat Xizrning sinonimlaridan biri Oq Ilon. Sh.Turdimovning aytishicha, Hazrati Xizr, qadimgi turkiy xalqlar eposlarida Oq ilon timsolida ham namoyon bo'ladi. Bu masalada Xizrni nur ekanligi to'g'ri, shu bilan birga Nur osmondan tushishini e'tiborga olib, uning qiyofasini boshqalarga tushunarliroq ifoda etish uchun baxshilar Oq ilon so'z birikmasini qo'llaganligini aytish mumkin. Shuning uchun osmondan tushayotgan "uzunchoq nur" shakli yerda yurgan "Oq ilon"ga o'xshatib baxshilar tomonidan kuylanganligi mantiqan asosli ko'rinadi [24; 12]. Yoqut

1 "Худ" сўзи форсча. Навоий асарлари луғатида 2 хил маънода қўлланиши тўғрисида маълумот мавжуд. 1. Худ – албатта, ҳақиқатан. 2. Ёлғиз, биргина, каби маъноларни билдиради. Мазкур ўринда ҳақиқатан маъносини ифодалаб келган

tilida "Ilan" – nurafshon kun ma'nosini anglatgan [25; 79]. Keyinchalik "Oq ilon" so'zi "Aglan", "Alan" "Al" shaklda qisqarishlarga uchragan. "Quva" so'zi ham nurni bildiradi [Quva – Xiva so'zlari ham aslida nur ma'nosini ifodalaydi]. Demak, Alanquvo so'zining etimologiyasi ilohiy yorug' nur bilan bog'liq tushunchalardan kelib chiqqan.

Xo'sh, Alanquvo va Maryam o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Maryam – Imronning qizi. U ilohiy qudrat bilan homilador bo'lib, Isoni tuqqan. Xristianlikda Xudo-ona timsoli. Iso payg'ambarning onasi. Maryam islom dinida ham ayollar valiysi, homiysi sifatida ilohiylashtirilgan.

Alanquvo – Xurilartoy merganning qizi. Yulduzxonning nabirasi. Dibun Bayonning xotini. Ikki o'g'illi beva ayol. U ilohiy nurdan homilador bo'lib, uchinchi farzandi Budanjirni tuqqan. Alanquvoning avlodlari (Bukun Qatag'an, Busqun Chalchi, Budanjir Munqaq) Nirunlar deb atalgan va milodiy 718 yilda yashagan. Alanquvo afsonasi nafaqat tarixiy mavzudagi asarlarda, tarixiy shaxslarning kelib chiqishini belgilashda balki sof badiiy asarlarda ham bosh qahramonning ilohiy qudrat bilan yaratilganligiga ishora sifatida muhim badiiy obrazga aylanadi. Biz yuqorida tilga olgan tarixiy mavzuda yozilgan asarlarda Alanquvo alohida e'tirof bilan tilga olingan. Podshohlar shajarasini aniqlashda, ularni madh etishda asar mualliflari bevosita Alanquvoga murojaat etishgan. Har bir asarda Alanquvo haqidagi ma'lumotlar mualliflar tomonidan o'ziga xos badiiy uslubda ishlanib, afsona, qissa, hikoyat tarzida bayon etilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, Mo'g'ul podshosi Alanquvo barcha turkiy va mo'g'ul xalqlarining (kelib chiqish nuqtasi) ajdodi hisoblanadi. U nafaqat tarixiy mavzudagi, balki badiiy asarlarda ham betakror xususiyatlari bilan gavdalanadi.

Maryam nomi va u haqidagi ma'lumotlar milodiy 610 yildan boshlab payg'ambarimiz Muhammad (a.s.)ga nozil qilingan kitob Qur'oni karimda zikr etilgan. Bundan ayonki, Maryam va u bilan bog'liq ma'lumotlar (jumladan, afsona va rivoyatlar ham) Alanquvodan oldingi davrlarda mavjud bo'lgan. Keyinchalik, mo'g'ul podshosi Alanquvoga Maryamga xos xususiyatlar nisbat berila boshlagan. Xalq og'zaki ijodida turli davrlarda Alanquvo haqidagi afsona va rivoyatlar yaratilgan. Natijada, Alanquvoning badiiy adabiyotdagi afsonaviy obrazi yuzaga kelgan. Bu obrazning yuzaga kelishida qadimgi Ko'k Tangri ta'limotining hamda Qur'oni karimda zikr etilgan Maryam haqidagi oyatlarning ta'siri kuchli bo'lgan.

## XULOSA

Mo'g'ullarning afsonaviy podshosi darajasiga ko'tarilgan tarixiy shaxs – Alanquvo adabiy jarayonda badiiy obraz sifatida shakllanib, o'zbek mumtoz adabiyotida muhim badiiy timsolga aylangan edi.

Alanquvo afsonasi keyingi davr tarixiy nasrida hikoyat va qissa shaklida berilgan. U asarlarda Allohning nazariga tushgan tarixiy shaxs, adolatli ayol podshodir. Shu sababli mualliflar an'anaviy syujetni o'z davri adabiy-estetik talablariga moslab tasvirlashga erishganlar. Nurdan paydo bo'lgan farzandning onasi sifatida ilohiylashtirgan. Afsonaviy motivni badiiy tasvir orqali tarixiy haqiqatga aylantirishga erishgan. Natijada, bu tarixiy shaxs tarixiy nasrda muhim afsonaviy-badiiy obraz sifatida shakllanib kelgan. "To'rt ulus tarixi" va "Shajarayi turk" asarlarida Alanquvoning adabiy portreti, xarakter xususiyatlari, ilohiy sifatlari turli badiiy tasvir vositalari orqali tasvirlangan. Maryamga xos ilohiy sifatlar Alanquvo obraziga ko'chgan.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. Чўлпон. – Тошкент. 1990. – 192 б.
2. Азиз Қаюмов. Асарлар. 4-жилд. –Тошкент. Mumtoz so'z. 46-бет.
3. Азиз Қаюмов. Асарлар. 6-жилд. –Тошкент. Mumtoz so'z. 2010. 102-114 бетлар.
4. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Sakkizinchi jild. Tarixi anbiyo va hukamo. – T.: 2013. B.704.
5. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Yettinchi jild. Xamsa. Sab'ai sayyor.– T.: 2013. B. 696.
6. Аҳмедов Б. Сўз боши. Шажарайи турк. - Т.: Чўлпон, 1992. -188 б.
7. Бахтиёр Исабек. http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/

qadimiy/165-oguznoma.html
8. Кононов. А.Н. Родословная туркмен. Сочение. Абул-Гази. Москва – Ленинград: Академии наук СССР. 1958. – 190 с.
9. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент. Шарқ, 2004. – 617 б.
10. Мавзолей Гур-и Эмир. http://e-samarkand.narod.ru/Guri-i-Emir.htm
11. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихий Рашидий. – Тошкент. Шарқ. 2007.
12. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Тошкент. Чўлпон. 1994. (Бўрибой Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳрири остида). // Мирзо Улуғбек. ("Улус-и арба-йи Чингизий"). " ("Шажарат ул-атрок"). 223 м/ф. Фотонусха. 226 кадр/вара 452 б.
13. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент. Ўзбекистон. 1996. -506 б.
14. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джоми ат-таварих. Начыл Еви. Баку. - 2011. Стр.518.
15. "Таворихи гузида" – "Нусратнома". Азиз Қаюмов. Асарлар. 6-жилд. Тошкент. Mumtoz so'z. 2010. 102-114 - бетлар.
16. Тоҳиров Қ. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. – Самарқанд: 1995. - 68 б.
17. Ўғизнома. Насимхон Раҳмонов таржимаси. Шарқ юлдузи. –Тошкент. 1989. №-4. 165-171- бетлар.
18. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Шарқ. –Тошкент. 1997. -384 б. (Нашрга тайёрловчи: А.Аҳмад.Ҳ.Бобобеков).
19. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома. –Тошкент. Шарқ. 2002. -413 б.
20. Ҳайитметов А. Навоий ва Аланқуво афсонаси. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси. 1984 йил 10-феврал сони.
21. Порсо Шамсиев. Навоий асарлари луғати. – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1973. 665-бет.
22. Утамбетова Арухан Жамғырбаевна. Бердақнинг "Шажара" достонида фольклористик ва реалистик тасвирлаш усулларининг қўлланиш хусусиятлари. Ф.ф.н. дисс. автореф. – Нукус: 2011. – Б. 14.
23. Ҳамидий Х. Шығыс тиллеринде жазба дәреклер ҳәм XIX әсирдеги қарақалпақ шайырлары. – Нөкис: Билим, 1991. – Б.73.
24. Ш.Турдимов. "Гўрўғли" достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Т.: 2011. Фан. – Б. 12.
25. Э.К.Пекарский. Словарь якутскаго языка. 3-том. – Петроград: 1917. – С. 79.